

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



“Tasdiqlandi”
Nizomiy nomidagi TDPU rektori
Sh.S.Sharipov
2019 yil

**Bitiruvchi kurs talabalari uchun umumkasbiy va ixtisoslik
fanlaridan Davlat attestatsiya sinovlari
DASTURI**

(Kasbiy pedagogika fani)



Bilim sohasi: 100000 –Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: 5111000- Kasbta'limi
(5150900-Dizayn (Kostyum)
5330400 – Kompyuter grafikasi va
dizayn)

TOSHKENT- 2019

Yeh

Ushbu dasturda 5111000-Kasb ta'limi 5150900-Dizayn (Kostyum), 5330400 – Kompyuter grafikasi va dizayn) ta'lim yo'nalishlari uchun "Kasbiy pedagogika" fanining mazmuni, fan bo'yicha Davlat attestatsiyasini o'g'zaki o'tkazish tartibi, baholash mezonlari, savolnomalari va o'quv adabiyotlar hamda elektron ta'lim resurslari ro'yxati keltirilgan.

Tuzuvchilar: Anarkulova G.M..

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Texnologiya ta'limi metodikasi" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Avazboyev A.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Texnologiya ta'limi metodikasi" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Taqrizchilar: Sattorov V.
Mamatov D.

TTESI dotsent, pedagogika fanlari nomzodi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Texnologiya va servis xizmati" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha PhD doktor.

5111000-Kasb ta'limi (5150900-Dizayn (Kostyum), 5330400 – Kompyuter grafikasi va dizayn) ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi talabalari uchun Kasbiy pedagogika fanidan Davlat attestatsiya sinovlari

DASTURI

KASBIY PEDAGOGIKA fanining mazmuni

"Kasbiy pedagogika" fan sifatida: O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi islohatlari. O'rtta maxsus, kasb xunar ta'limi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida. "Kasbiy pedagogika" fanining maqsad va vazifalari, asosiy tushunchalari, boshqa fanlar bilan aloqalasi. Kasbiy pedagogika mazmunini belgilovchi asosiy ilmiy yo'nalishlar.

Kasbiy ta'lim pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi: Milliy g'oyaning shakllanishida umumashariy va milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi tajribasiga tayanish. VIII-XIII asrlarda O'rtta Osiyoda shakllangan, kasbiy ta'lim tizimining fundamental asoslari. O'rtta Osiyo mutafakkir olimlari kasbiy ta'lim haqida. Movorounnahrda X-XII va XIV-XVI asrlarda kasbiy ta'lim.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi islohotlari: Ta'lim tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari va mohiyati. "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

Kasbiy ta'limning dolzarb pedagogik muammolari: «Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari. Kasbiy ta'lim turi va tizimi. Kasbiy ta'lim rivojlanishining asosiy omillari.

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xosligi: davlat ta'lim siyosatining tamoyillari. Milliy dasturning maqsad va vazifalari, tizimi va mazmuni. Kadrlar tayyorlar tizimi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari. Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari.

Uzluksiz, kasb-hunar ta'limi tizimida o'rtta maxsus ta'limning o'rni va ahamiyati: «O'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi» (O'MKHT) tushunchasi. O'MKHT rivojlanishi maqsadi. O'MKHT rivojlanishi tamoyillari. O'MKHT tizimining tavsifi va o'ziga hos jixatlari. O'MKHT ta'lim muassasalari maqsad va vazifalari.

Ta'limni standartlashtirish. O'rtta maxsus kasb-hunar ta'limi mazmuni, maqsad va vazifalari: Xalqaro va milliy standartlar. Standart, standartlashtirish me'yorlari tushunchalari. Ishlab chiqarishda standartlashtirish. O'zbekiston Respublikasida "Standartlashtirish to'g'risida" gi Qonun. Standartlashtirish, ta'lim standarti, O'MKHT ta'lim standarti tushunchalari. Standartlashtirishning me'yoriy elementlari. Standartlashtirish turlari. O'MKHT davlat ta'lim standartlariningsh funktsiyalari O'MKHT DTS maqsadi, funktsiyalari, vazifalari, tamoyillari.

O'zbekiston xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari: Xalq xo'jaligi tarmoqlari. O'MKHT dagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi. O'MKHT da kichik mutaxassis tayyorlash tizimi. O'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi mutaxassislik va kasblar yo'nalishlari bo'yicha

Umumdavlat Klassifikatori haqida tushuncha, maqsadi va ob'ektlari. Tasniflagich tuzilmasi.

Kasbiy ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili (chet el tajribasi sifatida): Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning maqsadi va mazmuni. GFR, Buyuk Britaniya, Frantsiya, AQSH, Italiya va Yaponiya mamlakatlarida kasbiy ta'lim. Hamdo'stlik mamlakatlarida kasbiy ta'lim.

O'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining ishlab chiqarishga moslashuvi: Kichik mutaxassislarining o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketish jarayonining ijtimoiy jihatlari va psixologik jihatlari.

Ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish jarayonlari: Korxonalarning yangi xo'jalik yuritishga o'tishi, faoliyat turlari kengayishi va o'zgarishi, o'rta va kichik biznes rivojlanishi va jamiyatning yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ijtimoiy buyurtmasini bajarish. Kichik mutaxassislarga (kollej bitiruvchilariga) qo'yiladigan talablar. «Ijtimoiy hamkorlik» tushunchasi.

Kasb ta'lim pedagogikasining didaktik printsiplari: Kasb hunar ta'limi jarayonlari taxlili va asosiy didaktik tushunchalar. Kasb hunar ta'limida umumdidaktik tamoyillar: ongillik va faollik, ilmiylik-sistemalik, nazariy va amaliy birligi. Ta'lim tarbiya birligi, ko'rsatmalilik. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari va ularni kasb-hunar ta'limida qo'llash.

Kasbiy pedagogikada qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari, shakllari va vositalari.

Kasbiy pedagogikada qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari. Kasb-hunar ta'limini tashkil qilish shakllari va vositalari.

Kasb-hunar ta'limini tashkil qilishda o'qituvchining asosiy vazifalari: O'qituvchining lavozim vazifalari. O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha vazifalar. Nazorat va baholash bo'yicha vazifalari. O'qituvchining metodik ishlari. *Kasbiy faoliyat va uning ob'ektlari:* O'qituvchining pedagogik faoliyat va uning ob'ektlari. Faoliyat uslubi.

Pedagogik faoliyati va pedagogik qobiliyat: O'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari: konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ. O'qituvchining pedagogik qobiliyati.

O'qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy maxorati: Kasbiy mahorat haqidagi ta'riflar. Pedagogik mahorat komponentlari: insonparvarlik, pedagogik bilimlar, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika o'rganish.

Kasb ta'limi dual tizimi: Kasb-hunar ta'limini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash. Ta'limni ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari turlari. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining ishlab chiqarishga moslashuvchanligi.

Kasb-hunar ta'limini boshqarish: O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarini boshqarishning umumiy va ilmiy asoslari. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga rahbarlik qilish, rahbarlar ishining mazmuni. Hozirgi kunda

kasb-hunar kollejlari boshqarish oshkoralik demokratiya va o'z o'zini boshqarishi asosida amalga oshirilishi.

O'qituvchi va rahbarlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv mahoratlari shakllanish: Pedagogik, psixologik boshqaruv to'g'risida ma'lumot. Boshqaruv jarayoni bosqichlari. Boshqaruv uslublari. Boshqaruvga yangicha yondashuv. Boshqaruvda o'qituvchining roli: faol, tashabbuskor va ijodkor munosabati.

Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarni tarbiyalash: Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilar tarbiyalashning maqsad va vazifalari, kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarni tarbiyalashga qo'yiladigan talablar, tarbiyalash metodlari. O'quvchilarni o'rganishning pedagogik-psixologik metodlari.

Kasb-hunar ta'limida ta'lim – tarbiya jarayoni sifatini nazorat qilish: Kasb-hunar ta'limida ta'lim – tarbiya jarayoni sifatini nazorat qilishning maqsad va vazifalari. Kasb-hunar ta'limida o'quv ta'lim jarayonini nazorat qilish. Kasb-hunar ta'limida tarbiya jarayonini nazorat qilish.

Kasb ta'limini umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim va fan bilan integratsiyalash: Kasb ta'limini umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim bilan integratsiyasi, integratsiyalash omillari. Kasb ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasi.

Kasb-hunar ta'lim jarayonining ishtirokchilari va jarayonlarni loyihalashtirish: Ta'lim-tarbiya, kasb hunar ta'limi jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi. Kasb hunar ta'limi jarayoni ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi, o'zaro ta'sir, muloqot va munosabatlari.

5111000-Kasb ta'limi (5150900-Dizayn (Kostyum), 5330400 – Kompyuter grafikasi va dizayn)) ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi talabalari uchun Kasbiy pedagogika fani bo'yicha Davlat attestatsiyasini og'zaki o'tkazish tartibi va baholash mezonlari.

“Kasbiy pedagogika” fani bo'yicha o'tkaziladigan Davlat attestatsiyasi og'zaki shaklda o'tkaziladi. “Og'zaki” variantning 1 ta savoli “Kasbiy pedagogika” fanidan beriladi. Davlat attestatsiyasini og'zaki o'tkazish uchun har bir talabaga 30 daqiqa (akademik) vaqt beriladi.

“Kasbiy pedagogika” fani bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi 0 dan 20 ballgacha baholanadi

“Kasbiy pedagogika” fanidan Davlat attestatsiyasida har bir variant savollari bo'yicha talabalar bilimi quyidagi mezon asosida baholanadi:

- berilgan savolga to'g'ri va to'liq javob berilsa, savolning mazmuni, mohiyati to'g'ri va izchil yoritilsa, shuningdek, ijodiy yondashilsa, og'zaki javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa o'zlashtirish ko'rsatkichi **17,1-20 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga to'g'ri javob berilsa, savolning mazmuni to'liq yoritilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi **14-16,9 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga to'g'ri javob berilsa, biroq berilgan savolning mazmuni to'liq bayon etilmagan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi **11,0-13,9 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga og'zaki javob noto'g'ri yoki yuzaki bo'lsa, qo'yilgan savolning mohiyati va mazmuni ochib berilmasa, unda o'zlashtirish ko'rsatkichi **0-10,9 ball** oralig'ida baholanadi.

“Kasbiy pedagogika” fanidan Davlat attestatsiyasi bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi **0 dan 20 ballgacha** baholanadi (17,1-20 ball - a'lo, 14-16,9 ball - yaxshi, 11,0-13,9 ball - qoniqarli, 0-10,9 ball - qoniqsiz)

ESLATMA: Yakuniy davlat attestatsiya jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholar e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi va talaba o'rtasida baholash ballari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda DAK raisi bilan kelishilgan holda xulosasi qilinadi.

5111000-Kasb ta'limi (5330400 – Kompyuter grafikasi va dizayn, 5150900- Dizayn (Kostyum))ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi talabalar uchun Kasbiy pedagogika fanidan Davlat attestatsiyasi sinovlarining asosiy savollari

KASBIY PEDAGOGIKA fanidan savollar:

1. O'zbekiston Respublikasi umumiy va kasbiy ta'lim tizimi islohati, O'rtaliq maxsus, kasb-xunar ta'limi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida.
2. Kasbiy pedagogika mazmunini belgilovchi asosiy ilmiy yo'nalishlar: o'rtaliq maxsus, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi, androgogika - kattalarni o'qitish pedagogikasi.
3. Kasbiy pedagogikaning asosiy tushunchalari: kasbiy ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy tarbiya, umumiy mehnat, professionallik, kasbiy mahorat.
4. Kasbiy ta'lim pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi, pedagogika tarixida mehnat va kasbiy tayyorgarlik g'oyalari. O'rtaliq Osiyo xududida kasbiy

ta'lim tizimi shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari. O'rtaliq Osiyo mutafakkir olimlari kasbiy ta'lim haqida.

5. Milliy g'oyaning shakllanishi, yoshlarni umumbashariy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, halq pedagogikasi tajribasiga tayanish.

6. Kasbiy ta'lim tizimida milliy islohotlar yo'nalishlarining mohiyati: ta'limning O'zbekiston halqlari madaniyati bilan boyitilgan milliy tarix, milliy an'analari va odatlar bilan uzviy bog'liqligi, ta'limni milliy rivojlanish, boshqa halqlar madaniyati va tarixiga hurmat uyg'otishning muhim vositasi sifatida tan olinishi.

7. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi islohotlari. Ta'lim tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari: milliy pedagogik merosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosqichma-bosqich amalga oshirish, tadrjijilik.

8. Ta'lim tizimi islohotlarining mohiyati: izchillik, ochiqlik, fuqarolarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qoniqtira olish, jamiyatning talablariga javob berish, jahon kasb va ta'lim bozorida samarali faoliyat yuritish va raqobat qila olish.

9. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini maqsad va amalga oshirish bosqichlari. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining tamoyillari.

10. Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xosligi.

11. Kasbiy ta'lim pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi: Milliy g'oyaning shakllanishida umumbashariy va milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi tajribasiga tayanish,

12. Jamiyatni liberallashtirish va demokratlashtirish, dunyo bozori sharoitlari va talabalariga javob beruvchi jamiyatga qaratilgan iqtisodni shakllantirish sharoitida ta'limni isloh qilish strategiya va taktikasi.

13. Kasbiy ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili (rivojlangan mamlakatlar tajribasi). GFR, Buyuk Britaniya, Frantsiya, AQSH, Italiya, Yaponiya, hamda s'ltik mamlakatlari kasbiy ta'lim.

14. Kasbiy ta'limning dolzarb pedagogik muammolari. Uzlaksiz ta'lim tizimi va turlari. Kasbiy ta'lim va uning rivojlanishining asosiy omillari.

15. O'MKXT ta'lim muassasalari maqsad va vazifalari. O'MKXT ta'lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji tushunchalari.

16. Ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish jarayonlari. Korxonalarining yangi xo'jalik yuritishga o'tishi, faoliyat turlari kengayishi va o'zgarishi, o'rtaliq va kichik biznes rivojlanishi va jamiyatning yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ijtimoiy buyurtmasini bajarish.

18. Ish beruvchilarning kasbiy ta'lim muassasalari bilan material-texnik ta'minotga yordam va o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkillashtirish boyicha o'zaro munosabatlarining o'zgarishi.

19. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish.

20. Kichik mutaxassislarga (kollej bitiruvchilariga) qo'yiladigan talablar.

21. Kasb ta'limida «Ijtimoiy hamkorlik» tushunchasi. Ijtimoiy hamkorlar bilan faoliyat yuritishda ta'lim muassasalarining mustaqilligini oshirish.
22. Ishlab chiqarish va kasbiy ta'lim o'zaro bog'liqligini amalga oshirishning ijtimoiy-pedagogik omillari.
23. Korxonada va ta'lim muassasalarining yangi turdagi hamkorlik shakllari: ijtimoiy hamkorlar bilan ikki yoqlama, uch yoqlama shartnomalari.
24. Kasbiy faoliyat va uning ob'ektlari. «Faoliyat» tushunchasi. Faoliyat turlari. Kasbiy faoliyat. Kasbiy faoliyat ob'ektlari.
25. Mazmun umumiyligi va mehnat bozori asosida kasb va mutaxassisliklarni gurublash. Mehnat bozorining kasblar guruhini shakllanishiga ta'siri. Kasblarni gurublashdagi asosiy sharoit.
26. O'MKXT kasblari va mutaxassisliklarini turkumlash.
27. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mutaxassislik va kasblar yo'nalishlari bo'yicha Umumdavlat Klassifikatori haqida tushuncha. O'MKXT mutaxassislik va kasblar yo'nalishlari bo'yicha Umumdavlat Klassifikatori maqsadi va ob'ektlari.
28. O'MKXT ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishlari tushunchalari. Tasniflagich tuzilmasi.
29. Standart, standartlashtirish me'yorlari tushunchalari. Ta'limni standartlashtirish. Xalqaro va milliy standartlar.
30. O'zbekiston Respublikasida "Standartlashtirish to'g'risida" gi Qonun.
31. Standartlashtirish, ta'lim standarti, O'MKXT ta'lim standarti tushunchalari.
32. Standartlashtirishning me'yoriy elementlari. Standartlashtirish turlari.
33. O'MKXT davlat ta'lim standartlarining funksiyalari.
34. O'MKXT DTS maqsadi, funktsiyalari, vazifalari, tamoyillari. O'MKXT DTS.
35. DTS, uni ishlab chiqish va amalda qo'llashga qo'yiladigan talablar. DTSni ishlab chiqish va amalda kiritish bosqichlari.
36. DTS mazmuni. DTSning tarkibiy qismlari.
37. DTSning Davlat va milliy-mintaqaviy tarkibiy qismlari.
38. DTS kiritilishi kasb-hunar kollejlari malakali mutaxassislarini tayyorlash sifatini baholashning asosiy maqsadi sifatida.
39. "Ta'lim sifati", "ta'lim sifatini nazorat qilish", "ta'lim sifatini baholash" tushunchalari.
40. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish jarayonidagi asosiy natijalar.
41. Alohida ta'lim tuzilmalarida rivojlanish omillarining asosiy ko'rsatkichlari.
42. O'MKHT muassasalarining jihozlanishi.
43. O'MKHT mazmunining tarkib topishi va modernizatsiyasi.
44. O'MKXT tizimida iqtisodning o'rta bo'g'in malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojini qondirishning statistik ko'rsatkichlari.
45. Kasb ta'limi muassasini boshqarish. Boshqaruv shakllari va metodlari/
46. Kasb ta'limida uslubiy ishlarni tashkil etish metodikasi.
47. Kasb ta'limida dual tizim mohiyati.

48. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bosqichlari va vazifalari.
49. O'MKXT ta'lim muassasalarining material-texnik, o'quv-uslubiy ta'minoti. O'MKXTning rivojlanish omillari.
50. Kasb-hunar ta'limida ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish.

**O'QUV ADABIYOTLAR VA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI
RO'YXATI**

**Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar
Asosiy adabiyotlar**

№	Muallif	Adabiyot nomi	Nashr yili	Adabiyotning ARM dagi shifri	Adabiyotning ARM dagi inventar raqami	Adabiyot turi	ARM dagi soni
1	O.I. Avazboev Y.U. Ismadiyarov	Kasbiy pedagogika	Cho'pon nomidagi ijodiy uyi T. 2014	74.5 A.95	U 7741/46	O'quv qo'llanma	70ra
2	Abduqudusov O., Rashidov H.	Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi.	O'MKHTT KMO va UQT instituti, T. 2009.	74.5 A.15 924 163		O'quv qo'llanma	1ra
3	Olimov Q. I., Abduqudusov O. va boshqalar.	Kasb ta'limi uslubiyoti.	T.: "Moliya" nashriyoti, 2006.	74.5 K.22	U-65.25	O'quv qo'llanma	100ra
4	Sharipov Sh. va b.	Kasbiy pedagogika	T.: TDPU, 2013 y.	74.5 K.27	U-7600/54	Metodik qo'llanma	90ra
5	O.A. Qo'ysinov F.S. To'rabekov J.E. Pardaboev	Kasbiy pedagogika fanidan laboratoriya mashg'ulotlari	T.: TDPU, 2013	74.5 K.22	U-7603	Metodik qo'llanma	45ra

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib inozim va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lish kerak. O'zbekiston. 2017 y.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod—O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: Sharq, 1997. — 64 b.
3. Avazboev O.I. Kasb ta'lim metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. Metodik qo'llanma. — Toshkent: TDPU, 2007. 30 b.

4. Muslimov N.A., Qoysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. – T.: O'zbekiston Respublikasi, Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2009 yil - 92 b.
5. Muslimov N.A., Qoysinov O.A., Abduraimov Sh.S. Mehnat va kasb ta'lim metodikasi fanlaridan kurs ishlari. Metodik qo'llanma. –T.: TDPU, 2009. - 38 b.
6. Sharipov SH. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). -T.: TDPU, 2006. 34 b.
7. Qosimov S. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. T.: 2006 y.
8. G'ulomov S.S., Begalov B. Informatika va axborot texnologiyalari. Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik/Akademik S.S. G'ulomovning umumiy tahriri ostida. - T.: Fan, 2010. -704 b.
9. G'ulomov S.S., va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik/Akademik S.S. G'ulomovning umumiy tahriri ostida –T.: "Sharq", 2000. - 529 b.

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.tdpu.uz>